

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING KOREYS TILI GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Olmosxon Niyozova Erkaboyevna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

koreys tili o'qituvchisi

TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada akademik litseylarda koreys tilini xorijiy til sifatida o'qitish tizimida o'quvchilarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari tadqiq etiladi. Akademik litsey o'quvchilarining kognitiv rivojlanish xususiyatlari hamda o'quv dasturlarining chuqurlashtirilgan xarakteridan kelib chiqqan holda, morfosintaktik birliklarni induktiv va diskursiv yondashuvlar asosida o'zlashtirish mexanizmlari yoritilgan. Maqolada til o'rganuvchilarning grammatik ko'nikmalarini real kommunikativ vaziyatlarga transformatsiya qilish usullari aniq koreys tili grammatik formalarining lingvistik tahlili misolida ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvodidaktika, akademik litsey, grammatik kompetensiya, induktiv yondashuv, morfosintaktik cheklovlar, aglyutinatsiya, diskurs tahlili.*

Аннотация: *В данной статье исследуются проблемы развития грамматической компетенции в системе обучения корейскому языку как иностранному в академических лицеях. С учетом особенностей когнитивного развития учащихся академических лицеев и углубленного характера учебных программ, освещаются механизмы освоения морфосинтаксических единиц на основе индуктивного и дискурсивного подходов. В статье на примере лингвистического анализа конкретных грамматических форм корейского языка продемонстрированы методы трансформации грамматических навыков учащихся в реальные коммуникативные ситуации.*

Ключевые слова: *лингводидактика, академический лицей, грамматическая компетенция, индуктивный подход, морфосинтаксические ограничения, агглютинация, дискурс-анализ.*

Abstract: *This article explores the issues of developing grammatical competence within the system of teaching Korean as a foreign language (KFL) in academic lyceums. Given the cognitive development characteristics of academic lyceum students and the advanced, in-depth nature of their curricula, the paper elucidates the mechanisms of acquiring morphosyntactic units based on inductive and discursive approaches. Furthermore, the methods of transforming language learners' grammatical skills into real-life communicative contexts are demonstrated through the linguistic analysis of specific Korean grammatical forms.*

Keywords: *lingvodidactics, academic lyceum, grammatical competence, inductive approach, morphosyntactic constraints, agglutination, discourse analysis.*

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan akademik litseylarda xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'qitish, o'quvchilarda professional va akademik muloqot poydevorini shakllantirishni talab etadi. Xususan, sharq tillari, xususan koreys tili ixtisoslashuvi bo'yicha tahsil olayotgan akademik litsey o'quvchilarining ta'lim yakunida xalqaro TOPIK (Test of Proficiency in Korean) imtihonlaridan yuqori natijalarni qo'lga kiritishlari o'quv jarayonining bosh mezoni etib belgilangan.

Biroq, akademik litseylardagi real pedagogik jarayon tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ko'pincha darsliklarda berilgan alohida grammatik qoidalarni sintaktik darajada yaxshi o'zlashtirsalar-da, matn yaratish - 쓰기 va gapirish - 말하기 jiddiy grammatik va pragmatik xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu holat akademik litsey yoshidagi o'quvchilarning mavhum-mantiqiy fikrlash qobiliyati to'la shakllangan bo'lishiga qaramay, grammatika o'qitish metodikasining hanuzgacha statik va deklarativ bilim berish doirasida qolib ketayotganligi bilan izohlanadi.

Koreys tili o'zining morfonologik tabiati va sintaktik bilan o'zbek tiliga o'xshash bo'lsa-da, undagi sinonimik grammatik ko'rsatkichlarning funksional va sotsiolingvistik differensialatsiyasi nihoyatda murakkabdir. Shu bois, akademik litsey o'quvchilarida grammatik kompetensiyani shunchaki qoidalar tizimi sifatida emas, balki nutqiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi dinamik mexanizm sifatida shakllantirish ilmiy-pedagogik jihatdan dolzarb masaladir.

Akademik litsey o'quvchilarining yosh xususiyatlari umumta'lim maktabi o'quvchilaridan farqli ravishda, til faktlarini chuqur tahlil qilish, tizimlashtirish va qiyoslash - kontrastiv tahlil imkoniyatini beradi. Shuning uchun litseylarda grammatikani o'qitishda deduktiv usuldan - qoidadan misolga ko'ra, induktiv yondashuv - misoldan qoidaga sari va kognitiv diskurs tahlili samarali hisoblanadi.

D.Larsen-Frimen ta'rifiga ko'ra, grammatik kompetensiya faqatgina grammatik shaklni to'g'ri yasash emas, balki uning semantik yuklamasini anglash hamda ijtimoiy kontekstda to'g'ri qo'llay olish layoqatidir.

Akademik litsey o'quv dasturlarida grammatik birliklarni o'rgatishda quyidagi uch bosqichli kognitiv modelni qo'llash tavsiya etiladi:

1. **Strukturani izolyatsiyada emas, diskursda berish:** O'quvchi grammatikani gap tarkibida emas, kichik matn yoki audioparcha kontekstida ko'rishi shart.

2. **Kognitiv ziddiyat yaratish:** Tashqi ko'rinishdan bir xil, ammo ma'no jihatdan farq qiluvchi sinonimik strukturalarni yonma-yon qo'yish orqali o'quvchining tahliliy fikrlashini faollashtirish.

3. **Produktiv transformatsiya:** O'zlashtirilgan strukturani darhol TOPIK insholari darajasidagi akademik yozma nutqqa tatbiq etish.

Akademik litsey o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o'rta darajadagi eng ko'p xatolik keltirib chiqaradigan morfosintaktik birliklar misolida ko'rib chiqamiz.

O'quvchilar ko'pincha ushbu ikki shaklni o'zbek tiliga "-sa, agar" deb bir xil tarjima qiladilar va ularni nutqda aralashtirib yuboradilar. Biroq, akademik litsey o'quvchisi ularning real va noreal shartlik kategoriyasi bo'yicha farqini ilmiy anglashi lozim.

-(으)면: Real, amalga oshishi mumkin bo'lgan oddiy shart yoki odatiy takrorlanuvchi holatlarni ifodalovchi grammatik qo'chimchadir.

-다면: Noreal, amalga oshishi qiyin bo'lgan gipotetik ya'ni faraziy holatlarni yoki boshqa shaxsning nutqini keltirib shart bog'lashni ifodalovchi grammatik qo'chimchadir.

O'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar korpusi:

Xato variant: 내일 비가 온다면 집에서 쉴 거예요.

Ertaga yomg'ir yog'sa uyda dam olaman.

Ertaga yomg'ir yog'ishi real ehtimol, shu bois gipotetik -다면 noo'rin ishlatilgan.

To'g'ri variant: 내일 비가 오면 집에서 쉴 거예요.

Ertaga yomg'ir yog'sa, uyda dam olaman.

To'g'ri qo'llanilishi (-다면): 내가 다시 다시 태어난다면 피아니스트가 되고 싶다.

Agar men qayta tug'ilsam, pianinochi bo'lishni xohlardim.

Litsey darslarida ushbu birliklar o'rgatilayotgan, o'quvchilarga "Agar menda 1 million dollar bo'lsa..." va "Ertaga yakshanba bo'lsa..." kabi kontrastiv topshiriqlar berish orqali grammatik kompetensiya rivojlantiriladi.

Akademik litsey o'quvchilaridan akademik matnlarni tahlil qilish talab etilganligi bois, sabab ifodalovchi birliklarning grammatik kombinatorikasini (qaysi so'z turkumlari va zamonlar bilan birika olishini) mukammal bilishlari shart.

Morfosintaktik cheklovlar qiyosiy jadvali:

Grammatik ko'rsatkich	Zamon affikslari (-었/았-) bilan birikishi	Gap oxirida keluvchi nutqiy cheklovlar	Semantik tabiati
-아/어서	Mumkin emas	Buyruq -세요 va istak -읍시다 gaplarda kelolmaydi.	Umumiy, tabiiy sabab-oqibat
-기 때문에	Mumkin	Buyruq va istak gaplarda kelishi chegaralangan.	Rasmiy, ob'ektiv asoslash
-느라고	Mumkin emas	Faqat harakat fe'llariga qo'shiladi, salbiy natija beradi.	Subyektning vaqt,energiya sarfi

O'quvchilarda ushbu jadval asosidagi kompetensiyani shakllantirish uchun darsda quyidagi "Xatolarni tahrir qilish" interaktiv mashqi o'tkaziladi:

O'quvchi xatosi: 어제 시험 공부를 했느라고 잠을 못 잤어요.

O'qituvchi tahlili: -느라고 o'tgan zamon ko'rsatkichi -했- bilan foydalanilmaydi. Fe'l o'zagiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi.

Tuzatilgan variant: 어제 시험 공부를 하느라고 잠을 못 잤어요.

Kecha imtihonga tayyorlanaman deb uxlay olmadim.

Akademik litsey o'quvchilarining koreys tili grammatik kompetensiyasini rivojlantirish - chuqurlashtirilgan bosqich talablariga mos keladigan yangicha lingvodidaktik strategiyalarni talab qiladi. Shunchaki grammatik qoidalarni yodlatish paradigmasidan voz kechib, o'quvchilarni til faktlarini mustaqil tahlil qilishga o'rgatish lozim. Akademik litseylarda koreys tili darslarini tashkil etish :

1. Sinonimik grammatik guruhlarni parallel o'qitish: Dars rejalarida bir-biriga yaqin bo'lgan grammatik shakllarni (-아서/어서 va -니까, -지만 va -면서도) alohida emas, tizimli oppozitsiyada, farqlovchi jadvallar yordamida o'rgatish kerak.

2. "Grammatika - yozma nutq" zanjirini yaratish: Har bir o'rganilgan yangi o'rta daraja grammatikasi asosida o'quvchilarga xat yozish, insho yaratish -TOPIK shaklidagi topshiriqlarini berish, ularda sintaktik ko'nikmani protsedural darajaga olib chiqadi.

3. Morfosintaktik cheklovlar ustida ishlash: O'quvchilarga faqat shaklning ma'nosini aytish yetarli emas; uning qaysi zamon ko'rsatkichlari, qaysi fe'l turkumlari harakat yoki holat fe'li bilan birika olmaslik qonuniyatlarini sintaktik distributsiya o'rgatish pragmatik xatolarning oldini oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 국립국어원 (2015). *한국어 교육 문법 교재*. 서울: 서현사.
2. 김유미 (2021). *의사소통 중심 한국어 교실에서의 문법 교수법*. 한국어교육연구, 32(2), 105-128.
3. 이선웅 (2018). *한국어 문법 교육의 구조와 기능 통합 연구*. 연세대학교 출판부.
4. 박미경 (2021). *과제 중심 교수법이 한국어 문법 습득에 미치는 영향*. 한국어학보, 45, 135-156.
5. 조현용 (2019). *한국어 교육을 위한 문법 교육론*. 하우출판사.
6. 최재영 (2020). *중국 학습자를 위한 통합형 한국어 문법 교육론*. 한누리출판.

7. Larsen-Freeman, D. (2003). *Teaching Language: From Grammar to Grammaring*. Boston: Heinle & Heinle.

8. Niyozova O. E. O‘ZBEKCHA-KOREYSCHA TARJIMALARDA O‘XSHATISHLARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI GRAMMATIK VOSITALAR TARJIMASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 70-76.

9. Niyazova O. AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARING GRAMMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 25. – C. 41-46.

